



B1 DARAJADAGI TIL O'RGANUVCHILARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18880214>

Eshnazarova Maftuna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universitet talabsi

Eshnazarova725@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada B1 (Intermediate) darajasidagi til o'rganuvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni yoritiladi. B1 bosqichida o'quvchilar oddiy mavzularda gapira olsalar ham, fikrini kengroq va aniqroq ifodalashda qiynaladilar. Bu ko'pincha so'z boyligining yetarli emasligi bilan bog'liq. Tadqiqot jarayonida rolli o'yinlar, guruhli ishlash, savol-javob mashqlari hamda raqamli platformalardan foydalanish natijalari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va yangi so'zlarni faol nutqda qo'llashiga yordam beradi.

Abstract: This article discusses the importance of interactive methods in developing lexical competence of B1 level learners. At this level, students can communicate on everyday topics but often face difficulties in expressing their ideas clearly due to limited vocabulary. The study analyzes the use of role plays, group work and digital tools in vocabulary teaching. The results show that interactive methods increase learners' motivation and help them use new words in active speech.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, B1 darajasi, interfaol metodlar, lug'at boyligi, rolli o'yinlar, kommunikativ yondashuv.

KIRISH

Chet tilini o'rganishda lug'at boyligi juda muhim hisoblanadi. Agar o'quvchining so'z boyligi kam bo'lsa, u grammatik qoidalarni bilsa ham, erkin gapira olmaydi. Ayniqsa, B1 darajasida ko'plab o'quvchilar "to'xtab qolish" holatiga duch keladi. Ya'ni ular oddiy gaplarni tuza oladi, lekin fikrini batafsil tushuntirishda qiynaladi. Shu sababli leksik kompetensiyani rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy

ta'limda interfaol metodlardan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, ular o'quvchini dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Leksikani o'qitish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, M. Lewis leksik yondashuv nazariyasida so'zlarni alohida emas, balki birikma va kontekstda o'rganish samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. I.S.P. Nation esa lug'atni



muntazam takrorlash va amaliy qo'llash muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida kuzatish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. B1 darajadagi o'quvchilar bilan dars jarayonida ikki xil usul qo'llandi: an'anaviy yodlash va interfaol metodlar. Interfaol metodlarga rolli o'yinlar, guruhli muhokama va onlayn test platformalari kiritildi. Dars oxirida o'quvchilarning natijalari solishtirildi.

NATIJALAR

Tajriba natijalariga ko'ra, interfaol metodlar qo'llanilgan guruhda o'quvchilar yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirdi va ularni nutqda faolroq ishlata boshladi. Rolli o'yinlar jarayonida o'quvchilar yangi so'zlarni real vaziyatga yaqin sharoitda qo'llash imkoniga ega bo'ldi.

An'anaviy yodlash o'rtacha past

Rolli o'yinlar yuqori yuqori

Raqamli mashqlar o'rtacha-yuqori o'rtacha

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, B1 darajadagi o'quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ular lug'at

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi faol qatnashgan dars samaraliroq bo'ladi, interfaol metodlar (masalan: Quizlet yoki Kahoot platformalari) qo'llanilganda o'quvchilarning yangi so'zlarini eslab qolish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan ancha yuqorilaydi. Buni foizlarda ko'rib chiqadigan bo'lsak. An'anaviy yodlashda 20% dan 40% gacha. Rolli o'yinlarda 75% dan 85% gacha. Raqamli gamifikatsiyada 70% dan 90% gacha.

MUHOKAMA

Olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, interfaol metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O'yin va muloqot jarayonida o'quvchi o'zini erkinroq his qiladi va xato qilishdan kamroq qo'rqadi. Bu esa yangi so'zlarni amalda qo'llashga yordam beradi.

Shuningdek, so'zlarni kontekstda o'rganish ularni uzoq muddat eslab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. boyligini oshirish, nutqni rivojlantirish va dars jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy darslarda interfaol metodlarni qo'llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

- 1.Lewis.M (1993). The Lexical Approach:The State of ELT and Way Forward. Hove: Language Teaching Publications.
- 2.Nation.I.S.P (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press.
- 3.Qodirov.M.(2010). Markaziy Osiyo,Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri. Toshkent :Sharq.
- 4.Barduhn.S.(2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. British Council.